

Mansurjon Mahmudov

University of Business and Science dotsenti, (PhD)

JADIDLARNING MILLIY MADANIY MEROSGA DOIR QARASHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy aholining ilm-ma’rifatli kishilari orasida sovet hukumatining mafkuraviy tazyiqlari oqibatida e’tibordan chetda qolayotgan asriy qadriyatlarining bebaho durdonalari bo’lgan madaniy meros ob’ektlarini, ma’naviy merosni tadqiq etishga, avaylab asrashga qaratilgan chiqishlar, ma’ruzalar, ilmiy maqolalari tahlil etilgan. Bu davrda qanchalik murakkab bo’lmasin marifatparvarlar madaniy merosimizni xalqqa yetkazish uchun xattoki o’z jonlarini ham fido qilishdi.

Kalit so’zlar: Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Sadridin Ayniy, G’ulom Zafariy, Hamza, Muhiddin Qori Yoqubov, matbuot, ma’naviy meros, madaniyat, fan, adabiyot, gaeta, jurnal, maqola, Bayot, Dugoh, Segoh, Chorgoh, Nasrullo Shahnoz.

O’zbek taraqqiyparvar ziyolilarining ko’zga ko’ringan vakillari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Sadridin Ayniy, G’ulom Zafariy, Hamza, Muhiddin Qori Yoqubov kabi mashhur shoir, yozuvchi hamda pedagog-ma’rifatparvarlarning qator maqola va risolalarida o’zbek mumtoz musiqa madaniyati, ayniqsa, milliy musiqa merosi bo’yicha ko’plab izlanishlar olib borildi.

Milliy musiqa merosi jonkuyaridan Rajabzoda “Go’zal san’atlarimiz qatorida musiqamizning tarixi ham tekshirilmagan. Jon ozig’i bo’lgan maqomlarimizning tuzilishi har vaqt o’ziga ta’sir bilan bizni tortishi kabi, musiqamizning shunday xususiyatlarini sira o’ylamaymiz. Holbukim, musiqamizning tarixiy betlari qorong’u puchmoqlarda bitib ketmoqdadir. Bu kungi 15–20 turli musiqa qurollarimizning o’ziga maxsus ancha tarixiy beti bordir. Bir oz tekshirsak, go’zal san’atlarimiz uchun juda ham muhim parchalar yuzaga chiqorarmiz”¹, deya ta’kidlagan edi.

Ayni vaqtda Rajabzoda tanbur cholg’usining qadimiyligi, uning milliy musiqiy merosimizning “yuzdan saksoni shul tanbur orqali chalinishi”ni qayd etadi va uni “SHarq pianinosi” darajasida baholaydi. Muallif cholg’u haqida fikr yuritish bilan bir qatorda “millat ruhi” haqida tushuntirishga intiladi: “Turli millatlarning musiqaga qarashi, ko’ngil tortishlarini tekshirgan hukamolarning so’ziga ko’ra, musiqani tinglaganda har millatning tilagi bir turli emasdur. SHarq o’lkasida musiqiy bilim negizida yoqimlik tovushlar, kuylar, havolar qabul etilgani uchun bunga jon ozig’i deganlar. SHarq musiqiyasida bastalangan kuylarning ko’pisi ruh va fikrga yoqadirgan shoirona nuqtalardan, so’fiyona, zohidona hikmatlik so’zlardan tuzilgan she’rlardan terilib bastalangani uchun kishilik sezgilarining har turlisini musiqiy orqali cholish musiqiy chegarasidan chiqorilmish”². Rajabzoda Sharq, xususan, o’zbek kuylarini o’ziga xosligini ta’kidlab, “Qay bir SHarq maqomlarini Ovro’pa kuylari bilan solishtirilib ko’rilsa SHarq kuylarining qancha boy turli tovushga ega ekanligi bilinadur”, deydi.

Shu o’rinda, Muhiddin Qori Yoqubovning 1926-yilda “Er yuzi” jurnalida chop etilgan maqolasi muhim ahamiyatga ega³. Jumladan, u “Zamon o’tgan sari turmush o’zgarib va bunga qarab xalqning fikri, hissiyoti o’zgarganidek, xalq shoirlarining ijodiyotida ham bir qancha yangiliklar yaratilmoqdadir. Ilg’ori borg’on sari eski kuylar uzoq burchaklarda, eski xalq shoirlaridag’ina qolmoqdadir”⁴, - deya yozadi. U o’z vaqtida xalqimizning mumtoz musiqiy merosini asrab qolish va uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish borasida o’z mulohazalarini bildiradi.

Bu borada musiqani notaga solish masalasi ancha muammo bo’layotgan edi. “Ovro’pa musiqasiga, kuylariga nazar solsak, har bir kuyni no’taga olish bilan saqlab qolmoqda ekanligini ko’ramiz. Bizda no’ta yo’q. No’ta bo’lg’onda ham kuylarimizni saqlab qolg’on bo’lardik. U kuylarning yo’li, maqomi, tuzilishi va xalqqa bo’lg’on taassuroti bilan yangi nasllarimiz ham oshno bo’lub, uning

¹ Ражабзода. Танбур // Маориф ва ўқитғувчи. –1925. – № 2. – Б. 55.

² Юкоридаги макола... – Б. 67.

³ Қори Ёқубий. Ўзбек куйларини қандай сақлаш мумкин? // Ер юзи. – 1926. – №11. – Б. 14.

⁴ Қори Ёқубий. Ўзбек куйларини қандай сақлаш мумкин?... – Б. 15.

orqasida o'zbek musiqasida o'zbek tarixi taraqqiyotini yo'qotmaslikka ega bo'lardik", deya qayd etadi. Muhiddin Qori Yoqubov notalardagi chorak, nimchorak tovushlar milliy kuyni aynan yetkazib bera olmayotganligini aytgan edi. Ushbu maqolada san'atkor Olmoniyada "Funugrof" degan bir asbob borligini, "uni harakatga keltirib turib, kuylagan vaqtda grammafung'a o'xshab butun ovozni o'zig'a yig'ib olishi" haqida aytib, ushbuga yozilgan kuylarni 30–40 yil saqlash mumkinligini ma'lum qiladi. Bu borada, Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo'jaevning Germaniyaga ushbu asbobni sotib olish uchun buyurtma berganligi ma'lum bo'ladi.

G'ulom Zafariy ushbu masalada jiddiy izlanish olib borib, o'z xulosalarini quyidagicha bayon qiladi: "Men musiqamizning tarixin anglamak bo'lib Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va Namangan musiqa ustalari bilan bo'lgan musohabam natijasida shunday ko'rinadirkim, hamma musiqa ustalarimiz bir, yo ikki vosita bilan mashhur Xudoyberdi ustozga taqaladi. Farg'ona va Toshkentda ko'proq Shashmaqom yo'llari deb Bayot, Dugoh, Segoh, CHorgoh, Nasrullo SHahnoz kuylarini aytadilar. Qo'qon, Andijonda bularga Buzruk, Ushshoq, Iroqlarni ham qo'shadilar. Bulardan boshqa Navo, Ajam, Munojot, Rakb-mushkilot, Tajnis degan klassik musiqa yo'llarin biluvchilar har shaharda topiladi. Buxoro Shashmaqom i bular: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq"⁵.

Sadriddin Ayniy esa o'z maqolalarida Ota Jalol, Ota G'iyos, Qori Kamol, Qori Najm, Miratojon tanburnavoz – "Tillanoxun"larning o'zbek, tojik musiqa madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan cheksiz hissalarini ta'riflagan edi⁶.

Abdurauf Fitratning musiqa madaniyati va targ'ibotiga oid xizmatlari juda katta. Ushbu alloma 1921 yilda Buxoroda SHarq musiqa maktabini (bu dargohga Abdurauf Fitrat o'z uyini ajratib bergan edi – dissertant) tashkil qilgan va ushbu harakatlarning muttasil davomi sifatida aynan Abdurauf Fitratning tashabbusi hamda rus etnograf va musiqashunosi V. A. Uspenskiyning zahmatli mehnatlari samarasi o'laroq, 1924-yilda "Shest muzikalnix poem" ("Olti musiqiy doston") nomli ilk "Shashmaqom " nota yozuvlari nashr etilgan edi⁷.

U Sharq musiqa maktabini tashkil etarkan, bu yerga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda va xonandalar) bilan birga V. A. Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etdi. U shu vaqtdan boshlab "Shashmaqom " kuylarini to'plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Abdurauf Fitratning tashabbusi bilan V. A. Uspenskiy tomonidan Ota Jalol, Ota G'iyosdan esa Buxoro Shashmaqom i ilk bor notaga olinib, nashr etildi.

"O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi ham albatta zamon va tarixga asoslanib yaratilgan. Abdurauf Fitratning ilmiy qarashlari u yoritmoqchi bo'lgan masalalar asoslidir. Alloma mazkur risolada o'zbek mumtoz musiqasiga nisbatan ilk marotaba "klassik" atamasini qo'llaydi⁸.

"Klassik" tushunchasi insoniyat badiiy merosining tan olingan eng mukammal va dunyoviy ahamiyatga molik namunalariga nisbatan qo'llanilar ekan, bu o'rinda Abdurauf Fitrat "bizning klassik musiqamiz "Shashmaqom " ismi bilan yurgizilgan olti qator kuylardan iboratdir", deydi. Abdurauf Fitrat ko'p hollarda musiqa va uning tarixiy taraqqiyotini bevosita adabiyot hamda islom mafkuralari bilan qiyosiy o'rganadi. "Bizning adabiyotimiz Sharq islom adabiyotiga qanday bog'langan, qanday munosabatli esa, musiqamiz ham SHarq islom musiqasi bilan shunday bog'langan, shunday munosabatlidir", deya teran fikr yuritadi. Ushbu risoladagi mavzularni o'rganib chiqib, shuni aytish mumkinki, Abdurauf Fitrat musiqa ilmiga nazariy yondashgan va o'tmish musiqa allomalarining musiqiy risolalarini chuqur o'rganish bilan xulosalar chiqargan.

Risolaning "SHarq musiqasi" nomli bo'limida Sharq xalqlari musiqasi uslub jihatdan o'zaro farq qilsada, nazariy jihatdan 12 maqom asosida birlashgani e'tirof etiladi. Ushbu yaxlit nazariya bevosita

⁵ Зафарий Ф. Ўзбек музикаси тўғрисида // Аланга. – 1930. – № 1. – Б. 10.

⁶ Айний С. Куллиёт. Ч. 7. – Душанбе: Ирфон, 1962. – С. 331; Ўша муаллиф: Куллиёт. Ч. 11. Китоби дуум. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 436.

⁷ Абдурауф Фитрат. Шашмақом // Маориф ва ўқитғувчи. – 1925. – №2. – Б. 16.

⁸ Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик музикаси ва унинг тарихи. – Самарқанд-Тошкент, 1927. – Б. 27.

arab istilosidan keyin musulmon sharqida hukm surgan “madrasa birligi”, ya’ni umumiy ta’lim tizimi tufayli vujudga kelgani ta’kidlanadi.

Abdurauf Fitrat Shashmaqom ga quyidagi ta’rifni beradi: “Shashmaqom olti asosiy maqom – Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari bo’lib, har bir maqom mushkilot (soddagina cholg’u), nasr (qo’shiq bilan cholg’u), ufor (tonish bilan cholg’u)lardan iborat uchga bo’lingan. Har bir bo’lim necha kuylarga taqsim etilgan. Har bir kuyni yozg’onda notaning bosh tomonidan shul kuyning usuli ham ko’rsatib borilgan”⁹.

Abdurauf Fitrat Shashmaqom “bayrog’i” ostiga kirmagan el kuylari – xalq og’zaki ijodi namunalari yo’li va o’lchovi ma’lum bo’lgani holda ularning qanday bastalanishi haqida ma’lumotlar yo’qligini o’rinli ravishda ko’p marotaba takrorlagan.

Abdurauf Fitrat musiqiy cholg’ular haqida fikr yuritganda, tanburning musiqa risolalarida “tanbura” tarzida yozilganligini ta’kidlab, uning do’nbira-tanbura-tanbur shakliga kelganligiga shubha qilmaydi.

Dutor cholg’usining tanburga qaraganda ijrosi yengil bo’lganligi tufayli xalq orasida tanburdan ko’ra kengroq tarqalganligi ta’kidlanadi. Pardalari 13–14 bo’lib, kamligi uchun maqom kuylari dutorda chalinmaydi. Faqatgina Shashmaqom sho’bacha va ufarlari hamda el kuylarini chalish mumkinligi ta’kidlanadi.

Abdurauf Fitrat o’zining “O’zbek musiqasi to’g’risida” nomli maqolasida shunday yozadi: “Musiqamizning katta kamchiliklaridan bittasi uning tarqoqligidir. Musiqamizda birlik yo’q. Bir kuy Xivada boshqa, Buxoroda boshqa, Farg’onada boshqa, Toshkentda boshqacha cholinadi. Hozirgi texnikumlarimiz ham shul chiziqdan chiqolmay yuradirlar. Buni yo’qotish uchun musiqa texnikumlarimizdan boshlab ishga kirishmoq kerak. Musiqa texnikumlariga Maorif komissarligi tarafidan umumiy prog’rom berish, unga kirgan kuylarni notaga olib (hech bo’lmaganda Xorazm notasiga olib!) tarqatish va darslarni shul notaga muvofiq, suratda davom etishlarini talab qilish kerak”¹⁰.

Mutavakkil Burhonovning Abdurauf Fitrat haqidagi xotiralarida quyidagi misralarni o’qiydiz: “...o’sha kezlarda har haftada bir marta Fitratning uyida musiqa kechalari bo’lib turardi. Bu kechalarda shoirlar va olimlar bilan bir qatorda domla Halim Ibodov, Ota G’iyos, Ota Jalol, Abduqodir Ismoilov va Abdurahmon Umarov kabi ustoz san’atkorlar ham ishtirok etardi. Bu kechalar tong otguncha davom etar, ularda Shashmaqom ohanglari yangrar, turli musiqa asboblarining sadolari eshitilardi. Tez-tez munozaralar bo’lib turar, SHarq musiqasining xususiyatlari, usullari, nozik jihatlari to’g’risida tortishuvlar bo’lib ketardi. Fitrat musiqani, qo’shiqni g’oyat nozik his qilishi bilan birga, kuydagi har bir zarbning o’rinli yoxud o’rinsizligini payqay olardi.

O’sha musiqiy oqshom ishtirokchilarini eslab, ularning ma’naviy dunyosi naqadar boy bo’lganiga qoyil qolishdan tolmayman. Ular musiqasiz yashay olishmasdi, Sharq musiqasi ularning har bir hujayrasiga singib ketganday edi”¹¹.

Mutavakkil Burhonov Abdurauf Fitratning musiqaga sadoqatini ko’rsatadigan yana bir voqeani bayon etadi: “26-yillarning boshida u Buxoro Shashmaqom ini ijro etuvchilarni to’plab, Ota G’iyosdan mashg’ulot yo’lini, Ota Jaloldan nasr yo’lini yozib oldi. So’ng Toshkentdan atoqli musiqashunos Uspenskiyni chaqirib olib, unga yonidan pul to’lab, Shashmaqom ni notaga ko’chirtirgan. Keyinchalik bu notalar Moskvada bosilib chiqdi. Unda “Fitrat va Mironov tahriri ostida” degan yozuv bor. Notalarning bir nusxasi hozirgi kunda Hamza nomidagi San’atshunoslik institutida saqlanmoqda”¹².

Olim har bir ilmiy tadqiqotlari yakunida xalqning musiqiy merosini asrash yuzasidan quyidagi hukumatga murojaat va takliflarini bayon etgan: “Mana shu uzun gaplar bilan musiqiyimizning tarixiy boylig’ini oz-moz ko’rsatgan kabi bo’ldik”, deydi. Maorif komissarligiga qaratilgan kichkina murojaat-arizasida milliy musiqa maktablari sonini ko’paytirish, ularga moddiy-ma’naviy yordam ko’rsatish,

⁹ Абдурауф Фитрат. Шашмақом // Маориф ва ўқитғувчи. – 1925. – №2. – Б. 25.

¹⁰ Абдурауф Фитрат. Ўзбек мусикаси тўғрисида // Аланга. – 1928. – №2. – Б. 33.

¹¹ Burhonov M. Fitrat haqida xotiralar // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/mutavakkil-burhonov-fitrat-haqida-xotiralar.html>.

¹² Ўша жойда.

mazkur maktab bitiruvchilari Rossiyadagi musiqa texnikumlarida tahsilni davom ettirishlari, milliy musiqa maktablarida rus tili va nota savodi darslari o'tilishi kerakligi, milliy musiqani notaga olishda Yevropa ohang-usuli (intonatsiyasi)ga ergashmaslik kerakligi ta'kidlanadi.

Qayd etish kerakki, o'sha kezlarda klassik merosni e'zozlash emas, o'tmishdan qolgan qoloqlik sifatida yo'qotish avj olgan bir sharoitda Fitrat, uning safdoshlari qilgan ishlari chinakam jasorat hisoblangan. Ushbu jasorat tufayli mumtoz musiqamizning muhim bir qismi kelajak avlodlar uchun saqlanib qoldi.

Milliy ziyolilar xalqning musiqiy merosini asrash o'zbek xalq folxlori merosini to'plash, yozib olish va targ'ib etish yuzasidan samarali ishlarni amalga oshirdilar.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, o'zbek xalq ijodiyoti, milliy musiqa merosini o'rganish va uni avlodlarga bezavol yetkazishda milliy ziyolilar katta ishlarni amalga oshirgan. Ularning fidokorona xizmatlari evaziga o'zbek musiqiy merosi ilk bor ilmiy tadqiq va targ'ib etish ishlari yo'lga qo'yildi. O'tgan asrning boshlarida o'zbek musiqa madaniyati darg'alari Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Hoji Abdulaziz Abdurasulovlarning ijrolaridagi qo'shiqlar yevropalik SHarq musiqasi shinavandalarigacha yetib bordi. Tarixan qisqa davrda o'zbek san'ati ham xalqimizning qadimiy musiqiy merosiga yo'g'rilgan holda katta yutuqlarni qo'lga kiritildi. Millatning o'tmishi va buguni, asriy orzu-istaklari va go'zal tuyg'ularini mujassam etgan ohanglar ona allalari, umrboqiy qo'shiqlaru mumtoz kuylarda rang-barang jilolanadiki, ularni tinglagan inson o'zligini anglaydi, ruhan yuksalganini his qiladi.

Adabiyotlar:

1. Қори Ёқубий. Ўзбек куйларини қандай сақлаш мумкин? // Ер юзи. – 1926. – №11. – Б. 14.
2. Зафарий Ғ. Ўзбек муסיқаси тўғрисида // Аланга. – 1930. – № 1. – Б. 10.
3. Айний С. Куллиёт. Ч. 7. – Душанбе: Ирфон, 1962. – С. 331; Ўша муаллиф: Куллиёт. Ч. 11. Китоби дуюм. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 436.
4. Абдурауф Фитрат. Шашмақом // Маориф ва ўқитғувчи. – 1925. – №2. – Б. 16.
5. Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи. – Самарқанд-Тошкент, 1927. – Б. 27.
6. Абдурауф Фитрат. Ўзбек муסיқаси тўғрисида // Аланга. – 1928. – №2. – Б. 33.
7. Burhonov M. Fitrat haqida xotiralar // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/mutavakkil-burhonov-fitrat-haqida-xotiralar.html>.